

Shoimova Vazira Shavqiddin qizi

*Qashqadaryo viloyati Koson tumani 4-DMTTda
tarbiyachi bo'lib ishlaydi. Qashqadaryo viloyati Koson
tumani Nartibaland mahalla Samarqand kocha 67-uyda
istiqomat qiladi*

**QUYOSHNING BIR KUNI**

Qadim o'tgan zamonda bir qishloqda Abror ismli bolakay buvisi bilan yashar ekan. Abror juda ham uyquchi edi. Shunaqangi ko'p uxlardiki, hech kim uyg'otolmaykan. Ertalab quyosh uning ko'zlari tomonga tushib turardi. Abrorning bundan jahli chiqib har tong ertalab jahl bilan uyqudan uyg'onarkan.

Abror uyqudan uyg'onib jahl bilan quyoshga qarab ishlarini qilib yurarkan. Kunlardan bir kuni Abror yana xuddi shu ahvolda uyg'onibdi.

Buvisi bundan xavotirlanib undan nega bunday qilayotganini so'rash uchun yoniga borib savol beribdi. Bolajonim har kuni ertalab senga qarab tursam jahl bilan uyg'onasan tinchlikmi nega bunday qilyapsan. Bola buvisiga qarab ex buvijon qo'ysangizchi har tong ertalab uyg'onam quyosh tepada xuddi ustimdan kuladiganday turadi. Ana shu quyosh menga yoqmaydi. Ana shu quyosh bir kun chiqmasligini xohlayman debdi.

Obbo bolajonim sen juda qiziq ekansanda debdi. Bolajonim senga men quyoshning bir kuni haqida aytib beraman debdida gap boshlabdi. Har tong ertalab quyosh boboning chiqishi bilan xo'roz qichqiradi. Tong otganini bilgan onajonlarimiz hovli va ko'chalarimizni ozoda saqlash uchun supurishadi.

Bog'bon bobolarimiz bog'ga, dehqon bobolarimiz dalaga borishib ayni bahor chog'ida daraxtlarni gullab yashnashi uchun o'z hissalarini qo'shadilar. Ana quyosh nurlari bog'imizdagi gullar va daraxtlar yashnashi uchun, mevalar va sabzavotlar g'arq pishishi uchun quyosh nuri foydali ekanligini tushuntiribdi.

Agar sen aytganday quyosh bir kuni o'z nurlarini sochmasa atrofni qorong'ulik qoplaydi. Tong otmaydi. Daraxtlar o'smaydi. Gullar yashnamaydi. Mevalar pishmaydi. Shunda bolakay buvijonisining bu gaplarini eshitibdida biroz o'ylanib qolibdi.

Agar quyosh bir kuni nur sochmasa olam gullab yashnamasligini tushunib yetdi. Aytgan gaplaridan uyalib qolgan Abrorjon buvisidan kechirim so'rabdi. Har kuni ertalab xushchaqchaq uyg'onishga va'da beribdi. Buvisi Abrorning gaplaridan juda xursand bo'libdi.

QAYSAR OLMA

Bir bor ekan bir yo'q ekan qadim o'tgan zamonda Orzular mamlakatida sabzavotlar va mevalar o'rtasida musobaqa o'tkazishibdi.

Unda sabzavotlardan qovoq, bodring, pomidor, sabzi, kartoshka, sholg'om qatnashibdi. Mevalardan nok, anor, limon, banan, kivi va qaysar olma qatnashibdi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Musobaqa shartlari birin-ketin qiziqarli davom etibdi. Sabzavotlar chaqqonlik bilan shartlarni bajara boshlabdi. Mevalar ham epchillik bilan shartlarni bajarishga juda harakat qilishibdi. Ammo qaysar olmaning qaysarligi tutib shartlarni bajarmabdi.

Shu tarzda sabzavotlar g'oliblikka yaqinlashibdi. Qaysar olmaning qaysarligi tufayli mevalar juda qattiq xafa bo'lishibdi. Vaqt oz qoldi mevalar tushkunlikka tusha boshlabdi. Keyingi shartlarga o'tish uchun ularga tanaffus berilibdi.

Sabzavotlar juda xursand mevalar esa qaysar olmaning sharofati bilan mag'lubiyatga uchrashmoqda. Shunda mevalar yig'ilib qaysar olmaga tanbeh berishga qaror qilishibdi.

Musobaqada g'olib bo'lish kerakligini jamoa nomini oqlashni aytib tushuntirishibdi. Qaysar olma bir oz o'ylanib qolibdi va qilayotgan qaysarliklari xato ekanligini tushunib yetib do'stlaridan uzr so'rabdi.

Vaqt ham o'z nihoyasiga yetibdi. Sabzavotlar va mevalar o'z joylarini egallashibdi. Musobaqa boshlanibdi shartlar birin-ketin qizg'in davom etibdi. Sabzavotlar juda epchillik bilan shartlarni bajarishibdi. Mevalar ham ularga tezda yetib olishibdi. Natijada do'stlik g'alaba qozonibdi. Kuch birlikda ekanligini tushunib yetishibdi.

FASLLAR AYLANISHI

Kunlarning birida shahar chetida bir bog' tashkil qilinibdi. Bog'da hamma daraxtlar ekilibdi.

Kunlardan bir kuni bu daraxtlar yil fasllari haqida gaplashishibdi. Olma daraxti shunday debdi: qish faslida biz daraxtlar uyquga ketamiz, barglarimiz to'kiladi. Ustimizga qor, yomg'ir yog'adi. Uni ustiga havo juda ham sovuq bo'ladi. Bunday vaqtda daraxtlar uyquga ketishi kerak debdi. Shunda bir kichkina daraxtning endi chiqqan yaproqlari shunday debdi. Nega endi men uxlashni xohlamayman, yaproqlarim ham to'kilishini xohlamayman debdi. Ular hayratlanib qarashibdi. Shunda unga jajji yaproqcha deb nom qo'yishibdi.

Keyingi gapirish uchun so'zni jajji yaproqchaga berishibdi. Yaproqcha bahor fasli haqida gap boshlabdi.

Bahor faslida daraxtlarimiz uyg'onadi. Kurtaklanib yaproqlar chiqara boshlaydi, gullaydilar. Shuning uchun ham uyg'onish fasli deb aytishadi.

Shundan so'ng nok daraxti yoz faslini tanishtirish uchun gap boshlabdi. Yoz fasli juda zo'r fasl bunda yaproqlar o'sishi sal sekinlashib, mevalar g'arq pisha boshlaydi.

Olma, anor, nok mevalarining yuzlarida xuddi kulgu yugurganday bo'ladi deb kulib qo'yibdi. Boshqa daraxtlar gapni ma'qullab xo-xolab kulib qo'yishibdi. Suhbat qizg'in davom etayotgan bir payti anor daraxti o'rtaga chiqibdida, kuz fasli haqida men gapirsam maylimi deb ruxsat so'rabdi.

Ular hayron qolishibdi va unga ruxsat berishibdi. Shunda anor daraxti gap boshlabdi.

Kuz faslini xazonrezgilik fasli deb atashadi. Biz daraxtlar barglarimizni shamoldan asrab qololmaymiz. Bir shamol bo'ladiyu, ular to'kilib ketadi. Kuz faslida daraxtlar qishki uyquga ketish uchun tayyorgarlik ko'rishadi debdi.

Qish faslida qor, yomg'ir yog'adi. Qish faslida yerlar oppoq tusga kiradi. Shamol bo'ladi. Havo sovuq bo'lib, daraxtlar uyquga ketadi. Qish fasli juda ham qiziqarli fasl.

Daraxtlar o'rtasida qizg'in suhbatlar davom etibdi. Ular 4 faslning qanday kelib ketishi, nimalar o'zgarishi haqida bilib oldilar va suhbatni o'z yakuniga yetkazishibdi.

JAJJI YAPROQCHA

Shamollar mamlakatida chekka bir qishloqda kichkina uycha bor ekan.

U uychada jajji yaproqcha yolg'iz hayot kechirarkan. Kunlardan bir kuni uning yoniga shamol kelibdi. Shamolni ko'rgan yaproqcha juda xursand bo'libdi. Ular birgalikda suhbat qilishibdi.

Uning hayoti qanday o'tayotganligi haqida so'rabdi. Shunda yaproqcha shunday deb gap boshlabdi. Mamlakatimizda qish fasli edi men jajjigina danak edim. Meni yerga ko'mib qo'yishdi. Ustimga qor, yomg'ir tusha boshladi. Yer tagida hayot kechira boshladim. Qishda mamlakatimizda qor, yomg'ir yog'adi. Shamol bo'ladi. Havo sovuq bo'lib, daraxtlar uyquga ketadi.

Oylar o'tdi, kunlar o'tdi. Bahor fasli kirib keldi. Bahorda daraxt bo'lib o'sdim. Daraxtlar ham asta-sekin uyg'ona boshladi. Kurtaklanib jajji yaproqcha chiqara boshladim. Bahor faslida ariqlar to'lib suvlar oqadi. Daraxtlar gullaydi. Bahor faslini esa uyg'onish fasli deb atashadi.

Oradan kunlar o'tdi, oylar o'tdi. Mamlakatimizda yoz fasli ham kirib keldi. Yoz faslida havo juda issiq. Daraxtlardagi yaproqlar xuddi piqillab kulayotgandek tuyilardi. Yaproqlar ortidan asta-sekinlik bilan mevalarimiz g'arq pisha boshladi.

Bolajonlarimiz juda ham xursandchilik bilan mevalarni yeyishardi. Fasllar shiddat bilan almashinib borishardi va nihoyat kuz fasli ham kirib kelibdi. Kuz faslida juda katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Daraxtlar yaproqlari to'kilib ba'zida shamol ham bo'lardi. Xazonrezgilik boshlanardi. Daraxtlarimizda kuz kelishi bilan yerlar qizarib go'yoki xafa ko'rinishardi. Chunki bu faslda ularni yaproqlari tark etardi. Shamol esgan paytda ularning yaproqlari har tarafga uchib ketardi.

Men ham ana shunday bo'lib yoshligimda ana shu uychaga kelib qolganman. Daraxtlarimizda qishki uyquga tayyorgarlik boshlanardi. Oylar, kunlar aylanib 4 fasllar birin-ketin aylanib kelishardi.

Shu yerda yaproqchanning gapi tugabdi. Ma'yus bo'lib qolibdi. Shunda shamol unga dalda beribdi. Hayot shunaqa ekanligini aytib o'tibdi va unga shunday debdi – jajji yaproqcha maylimi sen bilan bitta uychada yashasam deb aytibdi. Jajji yaproqcha bundan xursand bo'libdi. Ular ahil-inoq hayot kechiribdi.

QAYSAR OLMA

Anvar va uning bobosi hovlisining bir chetida sabzavotlar va mevali daraxtlar ekishibdi. Daraxtlar birma-bir o'sib, bir-biridan baland bo'libdi. Sabzavotlar ham birin-ketin, birma-bir o'sa boshlabdi.

Yozning o'rtalarida mevalar g'arq pisha boshladi. Bir qaysar olma daraxti sabzavotlarning pishishiga qarab turdi va yonidagi daraxtga qarab shunday dedi.



MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Qaniydi men ham shu sabzavotlar kabi yerda o'ssaydim debdi. Mana meni qarang olmalarim shoxlarimda osilib g'arq pishib shoxlarimni sindirib tashlaydi. Bu esa menga yoqmaydi debdida qovog'ini solib jahl qilibdi.

Sabzavotlarga esa mazza yerda o'sishadi. Hech qanday qiyinchilik ko'rishmaydi debdi.

Bu gaplarni eshitib turgan daraxtning jahli chiqibdi. Unga juda ko'p tushuntirishga harakat qilibdi. Ey daraxtcha unday qilma bir kuni afsuslanib qolasan debdi. Olma daraxti juda qaysar edi. Bu gaplarga parvo ham qilmabdi.

Bir kuni daraxtcha tush ko'ribdi. Taqdir taqozosi bilan yer aylanib olma daraxtdan tushib sabzavotlar yoniga borib qolibdi. Sabzavotlar ahil-inoq bo'lib o'sishardi. Ular olmani ko'rib hayron qolishibdi va undan nega bu yerdaligini so'rashibdi. Qaysar olma o'zining hayoti haqida gapirib beribdi. Shunda qovoq olmaga qarabdi shunday debdi.

Ey qaysar olma bizlarga havas qilma, chunki bizlarda ham muammolar juda ko'p yerda o'sgan sabzavotlarni, ya'ni bizni yerga ekishadi barglarimizni qurt-qumursqalar yeb qo'yishadi. Bizga zarar yetkazishadi deb o'ksinib yig'labdi.

Ularni eshitib turgan qaysar olma rosa achinib, rahmi kelib uyg'onib ketibdi. Qaysar olma sabzavotlarning bu gaplaridan xulosa chiqaribdi. Qilgan ishlaridan afsuslanib, daraxtlardan uzr so'rabdi. Daraxtlar uni kechirishib, uzoq umr ko'rishibdi.

